

OLIY TA'LIM NOFILOLOGIK YO'NALISHLARIDA ONA TILINI
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH JARAYONIGA
USLUBIY YONDASHUVLAR

Sharifjonova Kamolaxon Tohirjon qizi

Namangan davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

gmail: kamolabaxodir@gmail.com

Annotatsiya. *ushbu maqolada ona tilini o'qitish jarayoniga uslubiy yondashuvlar, shu jumladan, psixolingvistik yondashuvning ahamiyati, muhim jihatlari, haqida so'z boradi, ba'zi ilmiy ishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar. *uslubiy yondashuvlar, psixolingvistik yondashuv, indivudial xususiyat, til ko'nikmasi, psixik jarayonlar.*

Ona tilini o'qitish jarayonida turli uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi. Har bir yondashuv talabalarning o'zlashtirishiga, indivudial xususiyatlariga, o'rganishdan maqsadiga, olib borilayotgan ta'lim muhitiga asoslanadi. Ona tilini o'qitishda quyidagi asosiy yondashuvlarni keltirish mumkin:

- an'anaviy yondashuv;
- kommunikativ yondashuv;
- lingvistik yondashuv;
- nutqiy faoliyatga asoslangan yondashuv;
- innovatsion yondashuv;
- madaniy yondashuv;
- integratsion yondashuv
- psixologik yondashuv va hokazo.

An'anaviy yondashuv ko'proq nazariyaga asoslanadi. Bu yondashuvda asosiy

e'tibor grammatik qoidalarni o'rganishga, yod olishga qaratiladi; kommunikativ yondashuvda til jonli muloqot sifatida o'rgatiladi, o'rganuvchilarga og'zaki va yozma nutq vositasida o'z fikrlarini bayon qilish o'rganiladi; lingvistik yondashuv asosida tilning tuzilishi tilshunoslik nazariyasi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi, ona tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi; nutqiy faoliyatga asoslangan yondashuv til o'rganuvchilarning eshitish, gapirish, o'qitish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga, nutqiy malakalarni mustahkamlashga asoslanadi; innovatsion yondashuvda zamonaviy dunyoning texnika mo'jizalari:



raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturlar – onlayn omillar qo'llaniladi; madaniy yondashuv ona tilini madaniyat bilan, milliy qadriyatlar bilan, tarixiy manbaalar bilan bog'liqligini e'tiborga oladi; integratsion yondashuvda ona tilini boshqa fanlar bilan bog'liqligi asosida o'qitiladi.

Barchaga ma'lumki, inson shaxsining rivojlanishida ona tilining o'rni beqiyosdir. Ona tiliga har bir xalqning o'zligini namoyon qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishida qator psixik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, tafakkur, xotira, tasavvur, hissiyot, nutqiy muloqot va hakozo. Psixik jarayonlar nutq rivojlanishi bilan shakllanib boradi. Bu esa psixologiya va tilshunoslik o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi. Bunday aloqani o'rganuvchi fan esa psixolingvistika deb ataladi.

Psixolingvistika — bu til va psixologiya o'rtasidagi aloqani o'rganadigan fan bo'lib, u tilni qanday o'rganish, tilni qayta ishlash va tildagi jarayonlarning miyaning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.

Psixolingvistik yondashuv haqida Norita Purbaning “The Role of Psycholinguistics in Language Learning and Teaching” ilmiy maqolasida shunday ma'lumotlar keltiriladi: “...psixolingvistika uchta asosiy g'oyani o'z ichiga oladi: tilni ishlab chiqarish, tilni idrok etish va tilni o'zlashtirish. Til ishlab chiqarish deganda til orqali ma'no yaratish va ifodalash bilan bog'liq jarayonlar tushuniladi. Tilni idrok etish yozma va og'zaki tilni talqin qilish va tushunish bilan bog'liq jarayonlarni anglatadi. Tilni egallash deganda ona yoki ikkinchi tilni egallash jarayonlari tushuniladi. Psixolingvistika yuqoridagi uchta fikrni tushuntirib beradigan ko'plab nazariyalarni taqdim etadi. Nazariyalar til o'qitish sohasida juda foydali bo'lgan. Ba'zi olimlar ularni til o'qitish usullarini ishlab chiqishda asosiy nazariyalar sifatida ishlatishadi. Bu psixolingvistik yondashuv sifatida tanilgan. Psixolingvistik yondashuv til va fikrni o'zaro bog'liq, ammo mutlaqo mustaqil hodisalar deb hisoblaydi. O'rganish shaxs ichida sodir bo'ladigan kognitiv individual jarayon sifatida qaraladi va keyin ijtimoiy o'lchovga o'tadi.”⁷

Bundan ko'rinadiki, talabalarga til ko'nikmalarini hosil qilish ya'ni tilni oson tushunish imkonini beruvchi yondashuv zarur bo'lgan. Til hosil bo'lishi, uning nutqqa ko'chishi psixik jarayon bo'lganligi bois yondashuv sifatida psixolingvistik tadqiqotlar natijasida olingan metodlardan foydalanilgan. Bu esa tilni o'rganishda psixolingvistik yondashuvni vujudga keltirgan.

Ona tilini psixolingvistik yondashuv asosida o'qitishning muhim jihati shuki, unda til va ong o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi va buning natijasida “til

⁷https://www.researchgate.net/publication/334794715_The_Role_of_Psycholinguistics_in_Language_Learning_and_Teaching



o‘zlashtirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?”, “nutq inson psixologiyasiga qanchalik ta’sir etadi?”, “til va tafakkur o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?” kabi savollarga javob topiladi. Bugungi kunda talabalar til o‘rganishning amaliy jihatini o‘zlashtirishida zamonaviy psixolingvistik yondashuvlarga asoslanadi. Psixolingvistika tilni ikki tomondan: psixologik va lingvistik tarafdin o‘rganishni nazarda tutadi. Tilni bu ikki jihatdan o‘rganish, tilni o‘rganishda individial yondashuvlarga tayanishga asos bo‘ladi. Psixolingvistik yondashuv asosida talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish o‘rganuvchilar uchun alohida metodlarni ishlab chiqishga va tadbiq etishga yordam beradi. Natijada o‘qitish samaradorligi oshadi. Nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘rgatishdan maqsad: tilni amaliy va professional tarzda qo‘llashdir. Bu maqsadni amalga oshirish esa o‘rganuvchilarning alohida xususiyatlarini e’tiborga olishni talab etadi. Psixolingvistik yondashuv esa ayni vazifani hal etadi.

Ona tilini psixolingvistik yondashuv asosida o‘qitish turli uslubiy yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kommunikativ yondashuv – bunda ona tilini faqat grammatik qoidalar yordamida emas hayotiy muloqotlar asosida o‘rgatish muhim sanaladi.

2. Kognitiv yondashuv – bunda til o‘rganish jarayoni inson tafakkuri va bilish

jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv asosida til o‘rganuvchilar tahlil qilish, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish va yangi ma’lumotlarni o‘zlarining bilimlari bilan aloqadorligini aniqlash orqali tilni o‘rganishadi.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – bunda til faqatgina nazariy jihatdan

emas, balki, amaliyot bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi, ya’ni o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar faoliyatga yo‘naltiriladi.

4. Emotsional-ta’sirchan yondashuv – bu yondashuv bugungi kunda juda ham ahamiyatli yondashuvlardan biridir. Insonlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish, ehtiyoj kuchayib ketayotganligi sababli, ona tilini o‘rganish biroz zerikarli ko‘rinmoqda. Emotsional-ta’sirchan yondashuv esa ona tili o‘rganishga qiziqishni oshirishga, ishtiyoq uyg‘otishga asoslanadi.

5. Ijtimoiy-madaniy yondashuv – bunda til o‘rganish jarayoni milliy qadriyatlar, an’analar, madaniy meros bilan ravishda o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Bu yondashuvlardan foydalanishda til o‘rganuvchilarning yoshi, ta’lim muhiti ham muhim hisoblanadi. Masalan, kommunikativ yondashuvda



o'rgatish jarayonida til o'rganuvchilarning kritik yoshini inobatga olish foydalidir. Erik Lennebergning Critical Period Hypothesis – CPH nazariyasiga ko'ra, til o'rganish yoshga bog'liq bo'lib, insonning yoshligida tilni tabiiy ravishda o'rganish qobiliyati yuqori bo'lishi tushuntiriladi. Lennebergning fikricha, tilni tabiiy va oson o'rganish uchun kritik davr mavjud va u 0-12 yoshni o'z ichiga oladi. Bu davrdan so'ng yangi tovushlarni talaffuz qilish, grammatikani to'liq o'zlashtirish qiyinlashadi.⁸

Oliy ta'lim talabalari kritik yoshdan o'tgan bo'lishsada, ularning ona tilisi rivojlanaveradi. Bu davrda tilni tabiiy o'zlashtirish jarayoni sekinlashib, ular tilni ongli ravishda, stilistik va grammatik bilimlariga tayangan holda o'rganishni boshlaydilar. Talabalar tildan asosan, akademik nutq sifatida foydalanadilar, ya'ni, yozma ishlar, taqdimot himoyalari, ilmiy matnlar va hakoza.

Bu davrning yana bir muammolaridan biri – ko'ptillik. Talaba o'qish davrida ona tilidan boshqa tilda o'qiyotgan bo'lsa, bu uning talaffuzi va nutq ritmiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, gap qurilishida ham buzilishlar kuzatilishi mumkin. Bu kabi vaziyatlarga psixologik yondashuv asosida turli yechimlarni topish mumkin. Masalan, ona tilini o'rgatishda ichki motivatsiyani rag'batlantiradigan metodlar ishlab chiqish (emotsional-ta'sirchan yondashuv), til va his-tuyg'ular integratsiyasiga tayanish – chunki, har qanday ma'lumot yoki bilim hissiyotga bog'lansa inson xotirasida uzoqroq mudattga saqlanadi. Bunda talabalarga o'z hayotlaridagi qiziqarli voqeani ona tilida bayon qilishini aytish, ona tilidagi so'zlar, iboralar yordamida musiqa video tayyorlash kabi topshiriqlarni berish mumkin. Ona tilini o'rgatishda faqatgina ko'rish va eshitishga tayanib qolmay, harakatlar orqali o'rgatish: bunda talabaga oddiy, tayyor matn emas grafik tasvirli matn berish, berilgan matnni o'qish jarayonida turli harakat va ishoralardan foydalanish, ona tilidagi matnni o'qib tushunchalarini rasmda ifodalash, berilgan she'rlardagi jumalarni to'ldirish, so'zlardan tasavvur yordamida yangi hikoya yaratish, grammatik qoliplarni topish, o'zbek tilini o'qitishda talabalar orasida faol muloqot va interaktiv faoliyatlarni tashkil etish, o'qitish jarayonida tilni muntazam ravishda takrorlash va amaliyotda qo'llash, ona tilidagi so'z boyligini oshirish uchun telegram yoki mobil ilovalar uchun o'yin dasturlarini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlar jarayonida rasmiy hujjatlar, yangiliklar, texnik matnlar bilan ishlash, ona tilida talabalar uchun qiziq bo'lgan mavzularda bahs-munozaralar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁸ Lenneberg, E.H. (1967). Biological Foundations of Language. New York: Wiley. ISBN 978-0-89874-700-3.



Ona tilini psixologik yondashuv asosida o‘qitishda yana bir e‘tiborli jihati shuki, har bir talaba tilni o‘z ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘rganadi. Bunda har bir talabani alohida o‘rganib shaxsiy reja tuzish ham foydadan holi bo‘lmaydi.

O‘zbek tilini nofilologik yo‘nalishlarda psixolingvistik yondashuv asosida o‘qitishning metodik yondashuvlari ko‘p qirrali va individualdir. Ularning asosiy maqsadi — tilni o‘rganishni talabalar uchun oson va qiziqarli qilish, shu bilan birga ular tilni samarali ravishda o‘zlashtirishi kerak.

Psixolingvistik yondashuv asosida tilni o‘rganishda ona tilini faqatgina muloqot vositasi sifatida emas, milliy qadriyat sifatida o‘rgatish zarur. Bunda esa uslubiy yondashuvlardan birgalikda foydalanilsa, natijaga tezroq yetiladi. Nofilologik yo‘nalishlarda ona tilini psixolingvistik yondashuv asosida o‘qitish jarayoni talabalar uchun tilni o‘rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar til o‘qitishning kognitiv, psixologik, motivatsion va amaliy jihatlarini hisobga olib, o‘qitish jarayonini talabalar uchun qiziqarli va samarali qilishga imkon beradi. Psixolingvistik yondashuvlarni ona tilini o‘qitishda qo‘llash orqali talabalar nafaqat tilni o‘zlashtirishadi, balki tilni amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.researchgate.net/publication/334794715> *The Role of Psycholinguistics in Language Learning and Teaching*
2. Lenneberg, E.H. (1967). *Biological Foundations of Language*. New York: Wiley. ISBN 978-0-89874-700-3.
3. Bialystok, E. (2001). *Bilingualism in development: language, literacy and cognition*. Cambridge university press.
4. Raxmonov Sh. M. “Psixolingvistik yondashuvda tilni o‘rganish jarayoni”
5. Jalilova G.T. “O‘zbek tilini nofilologik yo‘nalishlardagi talabalar uchun o‘qitish metodikasining psixologik aspektlari”

